

To'ra Bobolovning navbatdagi tadbirkorlar qabuli bo'lib o'tdi.



Termiz shahridagi "Imom At-Termiziy" ilmiy tadqiqot markazining majlislar zalida viloyat hokimi To'ra Bobolovning "Tadbirkorlar qabuli" bo'lib o'tdi.

Unda viloyat hokimining birinchi o'rinbosari, viloyat hokimligi kotibiyat mudirlari, shahar va tumanlar hokimlarining tegishli o'rinbosari, iqtisodiy korxonalar rahbarlari ishtirok etdi.

Qabulda tadbirkorlar o'zlarining muammolari yuzasidan viloyat hokimiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishdi. Murojaatlarning aksariyati joyida hal etilayotgan bo'lsa, yechimi ma'lum vaqt talab etiladigan masalalar bo'yicha soha mutasaddilariga aniq vazifalar yuklatildi.

https://t.me/axborot_xizmati